

10-1-2018

## THE VIEWS OF ENGLISH ENLIGHTENMENT WRITERS ON ART AND LITERATURE

Risolat A`zamovna Achilova

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu>

---

### Recommended Citation

Achilova, Risolat A`zamovna (2018) "THE VIEWS OF ENGLISH ENLIGHTENMENT WRITERS ON ART AND LITERATURE," *Scientific reports of Bukhara State University*: Vol. 1 : Iss. 3 , Article 1.  
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol1/iss3/1>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific reports of Bukhara State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [brownman91@mail.ru](mailto:brownman91@mail.ru).

UDK 81

**UCH AYOL HUKMDOR  
ТРИ ЖЕНСКИХ ПРАВИТЕЛЯ  
THREE WOMEN RULERS**

**Ahmadova Umidaxon Shavkatovna***Teacher at the uzbek linguistics department, Bukhara state university***Ahmadova Zebiniso Shavkatovna***Student of Bukhara state university*

**Tayanch soʻzlar:** Alisher Navoiy, "Tarixi muluki Ajam", adolat, xalq, farovonlik, odil, Xusrav Parviz, Sheruya, Ulugʻbek, Abdullatif, Humoy, Turondoʻxt, Ozarmdoʻxt.

**Ключевые слова:** Алишер Наваи, "Tarixi muluki Ajam" ("История мулуки Ажам"), справедливость, народ, благосостояние, правосудный, Хусрав Парвиз, Шеруя, Улугбек, Абдуллатиф, Хумай, Турандукт, Азармдукт.

**Key words:** Alisher Navai, "Tarikhi muluki Ajam" ("The History of Ajam"), justice, people, welfare, just, Xusrav Parviz, Sheruya, Ulugbek, Abdullatif, Humay, Turandukht, Azarmdukht.

**Аннотация**

*Maqolada adolat gʻoyasi va odil hukmdor timsoli Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asariga tayanib yoritilgan.*

**Аннотация**

*В статье описывается замысел справедливости и пример правосудного правителя в произведении "Tarixi muluki Ajam" ("История мулуки Ажам") Алишера Наваи.*

**Abstract**

*The idea of justice and and the symbol of a just ruler has been analyzed in the article on the basis of Alisher Navai's work "Tarikhi muluki Ajam" ("The History of Ajam").*

**Kirish.** Hazrat Alisher Navoiy oʻz asarlarida, xususan, "Xamsa" dostonlarida insonparvarlik gʻoyalarini, yuksak insoniy fazilatlarni yetakchi timsollarning badiiy obrazi orqali ifodalagan. Ayni fikr ulugʻ mutafakkir asarlarida talqin qilingan xotin-qizlar obraziga ham taalluqlidir. Binobarin, "Xamsa" dostonlarida harakat qiluvchi ayollar mislsiz husn va goʻzallik, yuksak aql-u zakovat timsollaridir.

Shirin, Layli, Dilorom, Mehinbonu kabi timsollar orqali Alisher Navoiy inson sharafini, gʻururini, erk-huquqini ulugʻlaydi. Zulm va zoʻravonlikni inkor qilib, muhabbat va sadoqatni madh etadi. Zolim hukmdorlarni tanqid qilib, odil va oqil shoh gʻoyasini ilgari suradi. Urush qirgʻinlarini qoralab, doʻstlik va hamkorlikni targʻib etadi, mamlakat obodligi, xalq farovonligi uchun qaygʻuradi.

Shirin mamlakat hukmdori Mehinbonu bilan birga kanal qazish, suv chiqarish kabi buyuk ishlarga boshchilik qiladi. Ona yurti, xalqi uchun toza, begʻubor, begʻaraz oʻylar bilan hamisha band boʻladi. U Farhod timsolida insoniyat baxti uchun kurashuvchi olijanob insonni koʻradi. Farhodning chin insonligi, xalqparvarligi, mehnatsevarligi, elsevarligi, ijodkorligi uni maftun etadi.

Shirinning ijtimoiy qiyofasi Xusrav Parvizga boʻlgan munosabatda yanada ochiq koʻrinadi. Shirin tabiati eng qaltis vaziyatda ham bir yoʻnalishda, yagona nuqtada turadi va bu bilan u oʻzining iroda kuchini namoyon qiladi.

Takrorlanmas salohiyat sohibi Alisher Navoiy Shirin timsolida oʻz qahramonining shaxsiy hissiyotlarini xalq va mamlakat taqdiri bilan nozik bogʻlay olgan. Professor Natan

## ART AND HUMANITIES: MODERN LITERATURE

Mallayev g'oyat o'rinni ta'kid etganlaridek, Shirin timsoli "gumanizmning o'rta asrdagi qudratli ovozi"dir [4].

Ulug' mutafakkirning komila, oqila, fozila ayol hukmdor haqidagi qarashlari Navoiy "Xamsa"sining ikkinchi dostonida Mehinbonu timsolida o'z ifodasini topgan. Mehinbonu – odil va oqil, ma'rifatparvar davlat arbobi. U tun-u kun mamlakatni obod va xalqni farovon qilish istagi bilan yashaydi. Ilmni, olimni qadrlaydi. "Yuz ul fanlik aro har qaysi yakfan" Dilorom, Diloru, Diloso, Gulandom, Sumanbo', Sumanso, Parichehr, Parizod, Parivash, Paripaykar kabi ilm va hunar sohibalariga, olima qizlarga homiylik, ustodlik qiladi. Mehinbonu – inson erki, hissiyotlarini qadrlay oladigan sharq ayolining mungli dilidagi iztirob-u hayajonlarini anglashga qodir nazokatli ayol. Asarda Xusravning yovuz maqsadidan ogoh bo'lgan Shirinning Mehinbonu huzurida qilgan nolalari talqinida muallif qahramon tabiatining ayni qirralarini yorqin aks ettirgan.

Mehinbonu – hushyor, sezgir, fahmi-idroki yuksak amaldor. U Farhod siymosida sadoqatli, qat'iyatli, zahmatkash ijodkor insonni ko'radi va unga onalarcha mehr qo'yadi.

Mehinbonu o'z vatanini, xalqini behad sevadi. Shuning uchun ham mamlakat kelajagi, xalq baxt-saodati, yurt mustaqilligi va osoyishtaligi uchun tinimsiz qayg'uradi. U uzoqni o'ylab, har bir muammoga vazminlik bilan yondashadi. Shuning uchun ham johil hukmdor Xusrav Parviz bilan qayta-qayta muzokaralar olib borishdan erinmaydi. Alisher Navoiy Mehinbonu misolida o'z orzusi (idealidagi) ayol hukmdor obrazini yaratgan.

Ulug' mutafakkirning ilmiy asarlarida ham ayol hukmdorlar haqida mulohaza yuritilgan. Alisher Navoiy qalamiga mansub tarixga oid "Zubdatut-tavorix" asarining ikkinchi qismi "Tarixi muluki Ajam"da uch ayol hukmdor xususida ma'lumot berilgan.

Navoiy yozishicha, kayoniylar sulolasiga mansub to'qqiz hukmdor bo'lib, ularning birinchisi Qayquboddur. Uning hayoti ko'proq Jayhun daryosi atroflarida Turon hukmdori Afrosiyob bilan urushlarda kechgan. Fors saltanatining to'rt tabaqasi orasida birinchi ayol hukmdor ham kayoniylarga mansub bo'lib, uning ismi – Humoy. Mazkur sulolaning oltinchi vakili Bahmanning ikki o'g'li: Soson va Dorob va uch qizi: Humoy, Farang, Bahmando'xt bo'lgan ekan. Valiahd shahzoda Soson uzlatga chekinadi: " Soson zohid va muttaqi kishi erdi. Mulkka parvo qilmadi, go'sha tutdi" [3]. Shuning uchun ham shohning to'ng'ich qizi Humoy otasi vafotidan so'ng taxtga o'tiradi. Alisher Navoiy talqinicha, u oqila va g'oyat xushro'y ayol bo'lib, o'ttiz ikki yil davomida davlatni adolat bilan boshqargan. Aqlli va go'zal hukmdor Humoy uzoqni ko'zlab, saroy a'yonlari orasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarning, siyosiy o'yinlarning oldini olish maqsadida o'z farzandini yorug' dunyoda ko'z ochishi bilan sandiqqa solib, daryoga oqizadi: "Chun homila erdi, va'z haml qildi va saltanat hubbi qo'ymadikim, o'g'lini podshohlikka mansub qilib o'zi anga muhofazat qilg'ay. Ani bir sandiqqa solib, qiyr bila mahkam qilib, daryog'a soldi" [3].

Sandiqni daryodan olgan odam uni suvdan topgani uchun bolaga Dorob deb ism qo'yadi. Bola o'zi ulg'ayib, ilm-u fazl-u adabda hamda harbiy sohada (sipohiylikda) kamolot kasb etadi. Haq subhonahu va taolo unga har bir ishni boshqalaridan ko'ra chuqurroq tafakkur qilish qobiliyatini ato etgan edi: "Chun o'z himmatin ul ishdin biyukrak mulohaza qildi" [3].

U o'zini tarbiyalab voyaga yetkazgan kishidan (Navoiy ifodalarida "Gozur"dan) aslini aytib berishni talab qiladi: "Gozurdin o'z holi kayfiyatini savol qildikim, men o'zumni sening o'g'lung gumon qilmaydurmen, manga o'z najodimdan xabar ber! Gozur munkir bo'ldi. Ko'p so'z orada o'tgandin so'ng gozur bildikim, yoshura olmas. Ayttikim, seni sanduq bila suv ichida topib tarbiyat qildim" [3]. Bola sandiqqa solib daryoga oqizilganda, sandiq ichiga qimmatbaho narsalar va javohir ham solingan edi. Bolani asrab, parvarish qilgan kishi shu narsalarning ham qolgan qismini Dorobga topshiradi.

"Tarixi muluki Ajam"dagi 2500 yil oldin kechgan, Ajam shohlari hayotidan hikoya qiluvchi mazkur lavha Qo'qon davlati tarixi va adabiy hayotiga aloqador voqea sifatida manbalarda (jumladan, Mirza Olimning "Ansobus – salotin va tavorixi xavoqin", Mulla Niyoz Muhammad bin Mulla Ashur Muhammadning "Tarixi Shohruhiy" asarlarida) tilga olinadigan "Oltin beshik voqeasi"ni xotirga keltiradi...

## ART AND HUMANITIES: MODERN LITERATURE

Humoy o'z qo'shinini Rum mamlakatini fath qilish uchun yuborgan edi. Dorob o'z tarbiyachisi (Gozur) unga topshirgan sarmoya bilan ot-ulov, qurol-yarog' va boshqa jangchi uchun zarur bo'lgan asbob-anjomlarini tayyorlab, urushda ishtirok etadi. Jang maydonida "g'arib mardonalig'lar va pahlavonlig'lar" [3] ko'rsatadi. Uning qahramonliklari shuhrat tutib, "Humoyga bitib yubordilarkim, bu nav nodir yigit paydo bo'lib, podsho davlat xohlig'iga mundoq ishlar qiladur" [3]. Shohning qalbiga g'oyibona noma'lum jangchining mehri tushadi, unga g'alabadan so'ng ko'p inoyatlar ko'rsatishi haqida maktub yo'llaydi. Qo'shin urushdan zafar bilan qaytganidan so'ng yetakchi sarkardalar va arkoni davlat yig'ilib g'alabaning asl sababini tadqiq qiladilar. Barcha bir ovozdin Dorobni ko'rsatadi. Mamlakat osoyishtaligi va el manfaatini o'ylab, o'ttiz ikki yil farzandi dilbandidan judolikda yashagan ona ilk marta o'g'lini ko'radi. "Zubdatut-tavorix"dan o'qiyimiz: "Ko'zi anga tushgach, ko'ngliga iztirob tushub, emchokiga sut keldi. Tahayyur va taajjub bila gavhar va najodin tafahhus qildi ersa, Dorob andoqkim, bor erdi arz qildi. Humoy jazm bildikim, aning o'g'lidir. Arkoni davlatqa kayfiyatni bildirub, Dorobning yuzin o'pub, shodmonlig'lar bila tojni aning boshig'a qo'yub, taxtni anga musallam tutdi. Va o'zi parda keyniga kirib podshohliqqa o'g'lini o'turtti" [3]. Tarixiy asardan keltirilgan iqtibosda e'tibor qilish zarur bo'lgan uchta muhim nuqta bor. Birinchisi, farzand aslini tanigach, bosgan dastlabki qadamidayoq mamlakat taxtiga munosib nomzod ekanligini isbot qildi. Aql kuchi, irodasi, qobilyati bilan barchaning mehrini qozondi. Ikkinchisi, shubha va gumon tumani zarracha qolmagach, siyosiy vaziyat mutlaqo musaffo va beg'ubor holga kelgach, matonatli ona asl haqiqatni oshkor qiladi, "arkoni davlatg'a kayfiyatni bildiradi". Uchinchisi, "Zubdatut-tavorix" yaratilgan davrda undan oldingi va keyingi asrlarda ham ota va o'g'il, aka va uka o'rtasida toj-taxt uchun qonli kurashlar kechar, uning oqibatida oddiy xalq ko'p jabr ko'rar edi. Ayol hukmdorning ko'zi ochiqligida o'g'luga podshohlikni topshirishida, "shodmonlig'lar bilan tojni aning boshiga qo'yub, taxtni anga musallam tutishida" ayrim amalparast shoh-u shahzodalar uchun katta ibrat bor edi.

Alisher Navoiy mavzuning ayni qirrasiga nafaqat tarixga oid asari yoki "Xamsa" dostonlarida, balki boshqa sohaga yo'naltirilgan ilmiy asarlarida ham g'oyatda e'tibor bilan qaragan. Ma'lumki, ulug' mutafakkirning tazkira janriga mansub adabiyotshunoslik asari "Majolis un-nafois"da 460 ga yaqin ta'b ahli va tarixiy shaxs haqida aniq ma'lumot berilgan. Tazkiraning yettinchi majlisi xoqoni jahongiri sohibqiron Temur Ko'ragonga bag'ishlangan maqola bilan boshlangan. Yettinchi majlisda temuriylar sulolasiga mansub yigirma ikki shaxs haqida muhim tarixiy ma'lumotlar bitilgan. Yettinchi majlis Samarqand mulkida saltanat taxtiga o'tirgan so'nggi temuriyzodalardan biri Sulton Ali Mirzoga bag'ishlangan maqola bilan xotima topgan. Sulton Ali Mirzo jahongir Amir Temurga beshinchi (Sulton Mahmud Mirzo – Abu Said Mirzo – Sulton Muhammad Mirzo – Mironshoh – Amir Temur) avlod edi. Muallif yettinchi majlisning to'qqizinchi maqolasida Mirzo Ulug'bekning uchinchi o'g'li Abdullatif haqida yozadi: "O'tar dunyo maslahati uchun donishmand va podshoh otasin o'turturdi. Har o'ynakim, saltanat Sheruyaga vafo qilg'oncha anga qildi [2]. Tarixdan ma'lumki, Ulug'bekka qarshi fitnalarda qatnashib, oxiri 1449-yilda otasiga qarshi qo'shin tortgan Abdullatif otasi va ukasi Abdulazizni qatl ettirib, Samarqandni egallaydi. Oradan ko'p o'tmay, 1450-yilda Samarqand shimolidagi Bog'i maydon yaqinida Ulug'bek tarafdorlari tomonidan o'zi ham o'ldiriladi. Yuqorida "Majolis un-nafois"dan keltirilgan iqtibosda Alisher Navoiy padarkush temuriyzoda bilan VII asrda yashagan Ajam shohlarining sostoniylar sulolasiga mansub shahzoda Sheruya taqdiridagi bir xillikka e'tiborni tortadilar.

"Zubdatut-tavorixda" esa otasi Xusrav Parvizni o'ldirib, taxtga o'tirgan padarkush Sheruyaning keyingi taqdiri haqida quyidagicha ma'lumot berilgan: "Atosini o'lturg'ondin so'ngra aning ham jismig'a azm ranj tori bo'lub, yeti oydin so'ngra hayot vadiatin ajal mutaqqoziysig'a topshirdi" [3].

Yetti oy podshohlik qilgan Sheruya mulk hirsiga berilib, taxtga o'tirishi mumkin bo'lgan o'n yetti og'inisini ham o'ldirgan edi. Voris topilmagach, zaruratdan uning yetti yashar o'g'li Ardasherni podshoh qiladilar. Bola ulg'aygunga qadar davlatni idora qilish uchun Xusrav Parvizning yaqin a'yonlaridan bo'lgan "bag'oyat roy (yaxshi) va tadbirga mansub, poknafas va nekandish" [3]. Mehrijinsni arkoni davlat maslahatlashib vazir qilib tayinlaydilar.

Parvizning Shahrirod degan bir ulug' odami bo'lib, u Rumda yashagan. Shoh har bir ishni u bilan maslahat qilgan. Bu ishlar Shahrirod bilan bemaslahat bo'lgani uchun u qo'shin tortib kelib, Ardasher va Mehrijinsni o'ldiradi va o'zi Madoyin taxtiga o'tiradi. Uning podshohligi ko'pchilikka yoqmaydi va qirq kunda o'ldiriladi. Voqealarning davomini "Tarixi muluki Ajam"dan o'qiydiz: "Chun akosira naslidin kishi topilmadi, Parvizning Turondo'xt otlig' qizini podshoh ko'tarib, taxtga o'turttilar " [3]. Turondo'xt asarda nomi tilga olingan ikkinchi ayol hukmdordir. Yirik davlat va jamoat arbobi, katta hayotiy va amaliy tajriba sohibi Alisher Navoiy talqinicha, har qanday mansab ham abadiy emas. Mansab kursisiga o'tirgan amaldor, avvalo, ana shu haqiqatni to'g'ri his qila olishi zarur. Amaldorning qalbi mansabparastlik illatidan xoli bo'lsagina, u to'g'ri faoliyat yurita oladi. Mansabga hirs qo'yishdan tiyilgan inson amal kursisida erkin, bexijolat ishlaydi. Halol ish tutuvchi aqlli va donishmand kishi davlatni boshqarsa, mamlakat ravnaq topadi, xalq farovon yashaydi.

"Zubdatut-tavorix"dan o'qiydiz: "Turondo'xt chun podshohlig' taxtig'a orom tutdi, bag'oyat oqila erdi, bildikim, mulk anga o'zgalardek vafo qilmag'usidir. Dod va adl bunyod qildi va xaloyiqg'a ko'p umidvorlig'lar berdi" [3].

Ulug' mutafakkir xalq manfaatlari va farovonligi yo'lida, qo'shni mamlakatlar bilan munosabat masalasida Turondo'xt amalga oshirgan islohotlarni, ezgu ishlarni birma-bir raqam qiladi. Hukmdor faoliyatining natijasini esa quyidagi ixcham jumlada aks ettiradi: "Va xaloyiq andin (sho Turondo'xt dan – Z.A.) base muraffah (rohatlangan, tinch, osoyishta – Z.A.) va masrur (xursand – Z.A.) bo'ldilar" [3]. Fikrimizcha, xoh katta, xoh kichik bo'lsin, amal mohiyati va amaldor faoliyatining tub negizi tarixiy asardan keltirilgan ixcham iqtibosda yorqin aks etgan.

"Tarixi muluki Ajam"dagi qaydlarga ko'ra, Turondo'xtning podshohlik davri Muhammad alayhissalomning vafot etishlari, Arab xalifaligining boshlanishi, ya'ni Abu Bakr Siddiq faoliyatining ibtidosi, johiliya davriga chek qo'yilishi va islomiy e'tiqodning qaror topishi avvallariga to'g'ri keladi: "Va aning zamonida hazrat Sayyidul – Mursalin sallallohu alayhi vasallom fano tagnoyidin baqo olamig'a xirom qildilar va xilofat Abo Bakr Siddiq raziyallohu anhug'a muqarrar bo'ldi" [3].

"Tarixi muluki Ajam"da qalamga olingan uchinchi ayol hukmdor Turondo'xtning singlisi Ozarmdo'xtidir. U g'oyatda beqiyos husn-u xulq sohibasi bo'lib, tarixiy asarda o'z or-nomusini qattiq himoya qilgan ayol shoh sifatida talqin qilinadi. Ozarmdo'xt shahvat va nafsga mag'lub bo'lgan amaldorlarning tuban intilishlarini fosh etib, ularni eng oliy jazoga mahkum etadi.

Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asarida yetmishga yaqin tojidorlar haqida ma'lumot berilgan. Ulug' muarrix har bir saltanat sohibining irqi, millati, qaysi sulolaga mansubligi, jinsi yoki diniga qarab emas, balki adolatiga, xalq va mamlakatga yetkazgan foyda va zarariga qarab baho beradi.

Alisher Navoiyning qat'iy ishonchiga ko'ra, adolatsizlik va zulmning barbod etilajagi muhaqqaqdir. Adolat hech narsadan hayiqmaydigan qudratli kuchdir va bu qudratli kuch har qanday zulmkorni mag'lub etishga qodirdir.

## REFERENCES

1. **Navoiy A.** Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 8-jild. – T.: Fan, 1991. – 544 b.
2. **Navoiy A.** Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 13-jild. – T.: Fan, 1997. – 284 b.
3. **Navoiy A.** Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 16-jild. – T.: Fan, 2000. – 336 b.
4. **Mallaev N.** O'zbek adabiyoti tarixi. I-kitob. – T.: O'qituvchi, 1976. – 663 b.